

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH ORQALI MAJBURIYATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

WAYS TO ENSURE THE STABILITY OF LIABILITIES THROUGH CREDIT PORTFOLIO MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS

**¹Xakimov Sherzod
Shukurullayevich**

*¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy aktiv operatsiyalaridan biri bu bankning kredit operatsiyasi bo'lganligi bois u bevosita bankning hamkorlari va mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tijorat banklarining kredit portfeli sifatining yaxshi bo'lishi, ular tarkibida NPL darajasi kam salmog'ni egallashi va bank boshqaruvi tomonidan kredit portfeli diversifikatsiyasining yaxshi yo'lga qo'yilganligi bankning likvidlilik jihatidan ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, maqolada respublika tijorat banklarining kredit portfeli tarkibida depozitlarning ulushi, ularning optimal miqdori va banklarning kredit operatsiyasiga bog'liq muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - Since one of the main active operations carried out by commercial banks is the bank's credit operation, it directly affects the fulfillment of the bank's obligations to partners and clients. The good quality of commercial banks' loan portfolio, the low level of NPL in their structure, and the good diversification of the loan portfolio by the bank's management are considered positive in terms of bank liquidity. The article defines the share of deposits in the structure of the loan portfolio of commercial banks of the republic, their optimal size, and the problems associated with bank lending operations, and develops scientific proposals aimed at their solution.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banki, kredit, muammoli kredit, foiz, bank majburiyatlari, likvidlilik, kredit portfeli, depozit portfeli, investitsiya, qimmatli qog'oz, daromad.*

❖ *commercial bank, loan, problematic loan, interest, bank obligations, liquidity, loan portfolio, deposit portfolio, investment, securities, income.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158 sonli farmonida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish bank maqsadida moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard AQSh dollarga yetkazish hamda bank omonatlari hajmini

4 barobarga oshirish vazifasi yuklatilgan [1]. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida kreditlashning o'sish sur'atlari mo'tadilligini ta'minlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash, bank sektori nazoratini takomillashtirish va banklarda tavakkalchiliklarni boshqarishning zamonaviy tizimini tatbiq etish hamda

korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish orqali majburiyatlar barqarorligini ta'minlashning dolzarb ekanligini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Rossiyalik olim O.I.Lavrushinning fikricha, "tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi" deb ta'riflaydi [3].

Darhaqiqat, tijorat banklarining kredit operatsiyalarining asosiy moliyalashtirish manbai bu bankning depozitli va depozitsiz majburiyatlaridir. Tijorat banklari kredit operatsiyalarining monitoring va diversifikatsiya darajasi yoki aktivlar sifati darajasining past bo'lishi, bank majburiyatlarining qaytarilishini qiyinlashtiradi. Bu esa, o'z-o'zidan bankning likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

D. Polfreman va F. Fordlar bank faoliyatini tahlil qilishda bank resurslarini ko'rib chiqmasdan ularni bank passivlari deb ko'rib chiqishgan va ular bankning aksionerlari mablag'lari va jamg'armachilarning mablag'laridan tashkil topgan degan fikrni bildirishgan [4].

Ko'rinib turibdiki, xorijlik mualliflar bank resurslarini aniq ifodalab ularning shakllanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rishdan ko'ra umuman tijorat banklarining passiv operatsiyalari va passivlariga kengroq e'tibor berishgan. Bu holatni bir jihatdan ijobiy baholash mumkin, ya'ni, xorijiy banklar faoliyatida avvalambor ularning majburiyatlari va ularning bajarilishi, bizning fikrimizcha, old vazifa qilib belgilab olishgan. Bu qarashning ikkinchi jihati shundaki, tijorat banklari shu resurslarni o'z majburiyatlarini bajarishi uchun mukammal joylashtirishni afzal ko'radi va qattiq kredit siyosatini olib boradi. Tijorat

banklarining faoliyati mijozlari oldida olgan majburiyatlarini bajarishga qaratilgan bo'ladi.

L.Kovusovanning xulosasiga ko'ra, kredit portfeli – bu moliyaviy muassasa tomonidan o'z mijozlariga berilgan barcha aktiv kreditlari majmuasidir. Uning moliyalashtirish manbasi o'z ichiga kreditlar, qarzlar, obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlarini oladi. Tashkilot ularni qarz oluvchilarga foiz to'lovlari evaziga taqdim etadi. Kredit portfelining sifati bank yoki boshqa kredit tashkilotining moliyaviy barqarorligiga, shuningdek, uning foyda olish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi [5].

Iqtisodchining yuqoridagi fikri O'zbekiston Respublikasi bank tizimi uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Buning sababi shundaki, banklarimiz kredit qo'yilmalari tarkibida depozitlarning salmog'i 35-40 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, banklarda kredit riski yuzaga kelgan taqdirda o'z-o'zidan likvidlik riski ham yuzaga kelishini anglatadi.

Professor T.I.Boboqulovning ta'kidlashicha "bankning «Oltin qoidasi»ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy schetlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Vaholanki, mijozlar, odatda, o'z mablag'larining hammasini birdaniga olishmaydi, Shuning uchun, bankning naqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi" [6].

Iqtisodchi olimning fikri bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida balanslashmagan likvidlik muammosining paydo bo'lishi aynan yuqoridagi fikrlarning amaliyotga joriy etilmayotganligi bilan bog'liqdir.

Z.Mamadiyarov, M.Maxmudova, M.Kurbonbekovalar o'z ilmiy tadqiqotlarida, "majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital – bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan

shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashini va iqtisodiy jihatdan baquvvatligini ta'minlaydi. Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar tashkil etib, ular 80-90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va beqaror, ular uchun to'lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag'larga ajratish mumkin" – deb fikr bildirib o'tishgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tijorat banklari majburiyatlariga kredit operatsiyalarining ta'sirini o'rganishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra tijorat banklarining kredit portfelini

sog'lom bo'lishi va majburiyatlar risk darajasini minimallashtirish maqsadida kredit portfelini diversifikatsiyasini yaxshi tashkil etish muhim hisoblanadi. Xususan, ekspertlarning ta'kidlashicha bir sohaga ajratiladigan jami kreditlarning maksimal miqdori jami kredit portfelining 25 foiz miqdoridan oshmasligi lozim. Bundan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, turli xil siyosiy va iqtisodiy sabablar, fors-major holatlari va krizislar natijasida sohalar iqtisodiy tang holga kelib qolganda ularda bankdan olingan kreditlarni qaytarishda muammo yuzaga keladi. Bu esa, banklarga jalb etilgan resurslari va jami majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini cheklanishiga olib keladi. Ushbu risklarni minimallashtirish maqsadida banklarga kredit portfelini diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

1-jadval

Tijorat banklari kredit portfelining sohalar kesimida ajratilishi* (mlrd. so'mda va foizda)

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2021 mlrd. so'm	ulushi, foizda	01.01.2022 mlrd. so'm	ulushi, foizda	01.01.2023 mlrd. so'm	ulushi, foizda	01.01.2024 mlrd. so'm	ulushi, foizda	01.01.2025 mlrd. so'm	ulushi, foizda
Sanoat	102 162	36,9%	117 639	36,0%	126 647	32,5%	140 152	30%	153 389	29%
Qishloq xo'jaligi	28 081	10,1%	35 022	10,7%	42 096	10,8%	47 255	10%	50 303	9%
Qurilish sohasi	7 380	2,7%	9 282	2,8%	10 400	2,7%	12 275	3%	12 960	2%
Savdo va umumiy xizmat	19 916	7,2%	27 406	8,4%	28 911	7,4%	32 516	7%	38 130	7%
Transport va kommunikatsiya	26 626	9,6%	28 708	8,8%	29 673	7,6%	34 342	7%	32 808	6%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3 962	1,4%	3 814	1,2%	3 856	1,0%	4 067	0,9%	4 213	0,8%
Uy-joy kommunal xizmati	3 759	1,4%	2 284	0,7%	1 888	0,5%	2 345	0,5%	2 324	0,4%
Jismoniy shaxslar	54 888	19,8%	69 496	21,3%	100 949	25,9%	148 621	32%	177 532	33%
Boshqa sohalar	30 201	10,9%	32 734	10,0%	45 630	11,7%	49 833	11%	61 463	12%

*Jadval muallif tomonidan Markaziy bank ma'lumotlari asosida tuzildi.

1-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rsa bo'ladiki, 2021-2025-yillar mobaynida banklarimiz tomonidan ajratilayotgan kreditlarning katta qismi sanoatga va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Banklarimizning kredit portfelini

yuqoridagi sohalarda 25 foizdan sezilarli darajada yuqori salmog'ni egallaganligi bois kredit portfelini yaxshi diversifikatsiya qilinmaganligini anglatadi. Bu esa, banklarning majburiyatlariga nisbatan riskni yuzaga keltiradi.

2-jadval


Aksiyadorlik – tijorat “Sanoatqurilishbank”ning kredit portfeli va undagi muammoli kredilar hajmi, mlrd. soʻmda*

Koʻrsatkichlar	Yillar				
	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Kredit portfeli	39 898	43 148	48 076	57 124	65 498
Muammoli kreditlar	379	1 630	1 359	1 283	1 844
NPL darajasi (foizda)	1,0	3,8	2,8	2,2	2,8

*Jadval muallif tomonidan Markaziy bank maʼlumotlari asosida tuzildi.

2-jadvalda oʻz aksini topgan maʼlumotlardan yaqqol koʻrinadiki, Sanoatqurilishbankning kredit portfeli tahlil qilingan davrda oʻsish tendensiyasiga ega boʻlgan. Bu esa, shu davrda bankning resurs bazasi takomillashganligi va kreditlash salohiyati oshganligini koʻrsatadi. Bankning raqobatbardoshligi jihatidan qaraganda bu ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, Sanoatqurilishbankda tahlil qilingan davr mobaynida kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi kamayish tendensiyasiga ega boʻlgan. Bu esa, bankda aktivlar sifati

yaxshilanganligi, kreditning maqsadlilik tamoyiliga amal qilinganligi va bank majburiyatlarini soʻndirishda hech qanday muammo yoʻlqigini anglatadi. Sanoatqurilishbank ATBda 2023-2025-yillarda kredit portfelidagi muammoli kreditlar salmogʻi xalqaro meʼyorlarda eʼtirof etilgan, kredit portfelida NPL darajasining normal holati 3 foizni va yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan darajasi 5 foiz etib belgilangan darajaga toʻliq mos tushadi. Bu esa, bankning likvidlilik va raqobatbardoshlik tomonidan ijobiy holat hisoblanadi.



1-rasm. Sanoatqurilishbank, Asaka va Ipoteka banklarning ajratilgan kreditlari va jalb etilgan depozitlarining taqqoslama koʻrsatkichlari¹, mlrd.soʻmda (01.07.2025-yil holatiga)

1-rasm maʼlumotlaridan koʻrinadiki, Oʻzbekiston Respublikasining yirik tijorat banki hisoblangan Sanoatqurilishbankda yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarda ulardan jalb etilgan depozitlarning salmogʻi 33 foizni tashkil etgan. Bu esa bank resurslari bilan bogʻliq muammolar borligini va likvidlilik riski vujudga kelishini anglatadi.

1-rasm maʼlumotlarida keltirilishicha, Asaka bank va Ipoteka banklarda jismoniy hamda yuridik shaxslardan jalb etilgan depozitlar ularga ajratilgan kreditlar yuqori salmoqni egallaydi, bu bankning majburiyatlar bilan ishlash tizimi va bankning investitsion jozibadorligi yuqori darajada ekanligini bildiradi.

¹Rasm muallif tomonidan Markaziy bank maʼlumotlari asosida tuzildi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish orqali majburiyatlar barqarorligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

❖ tijorat banklarining kredit operatsiyalarining monitoring va diversifikatsiya darajasi yoki aktivlar sifati darajasining past bo'lishi, bank majburiyatlarining qaytarilishini qiyinlashtiradi;

❖ banklarimiz kredit quyilmalari tarkibida depozitlarning salmog'i 35-40 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, banklarda kredit riski yuzaga kelgan taqdirda o'z-o'zidan likvidlilik riski ham yuzaga kelishini anglatadi;

❖ bankning «Oltin qoidasi»ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi zarur;

❖ majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital – bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashini va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlaydi.

Fikrimizcha, tijorat banklarining kredit operatsiyalarini samarali boshqarishga

erishish orqali bank majburiyatlarini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklarining o'rta va uzoq muddatli kreditlarini moliyalashtirish maqsadida banklar tomonidan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan mablag'larni bank majburiyatlaridagi ulushini oshirish lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushum 2,5-3 foizni tashkil etadi. Bu esa, mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

2. Tijorat banklarining ajratilgan kreditlari va jalb etilayotgan depozitlarning muddati hamda sohalari bo'yicha doimiy monitoring va diversifikatsiyani amalga oshirib borish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning 1-iyul holatiga ko'ra jami jalb etilgan depozitlar 355 621,0 mlrd. so'mni, ajratilgan kreditlar esa 575 245,0 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu esa banklarimizda resurs taqchilligini keltirib chiqarishi mumkin [8]. Bu esa banklarning majburiyatlarini boshqarishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi PF-5992-sonli farmoni.

3. Банковское дело / Под редакцией И. О. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 1998. – С. 68.

4. Полфриман Д., Форд Ф. Основы банковского дела: Пер. с англ. – М.: Инфра-М, 1996. – С. 102.

5. Ловусова Л. Оценка кредитного портфеля // Международный научный журнал «Символ науки». – № 4, 2025. – С. 41-42.

6. Boboqulov T.I. Tijorat banklari resurslarini boshqarish: Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2017. 15 b.

7. Z.Mamadiyarov, M.Maxmudova, M.Kurbonbekova (2021). Bank ishi. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 160 b.

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari - www.cbu.uz